O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XORAZM VILOYATI XALQ DEPUTATLARI QO‘SHKO‘PIR TUMANI KENGASHI

Q A R O R I

2023 - yil 6 - yanvar VI-72-1-12-172-K/23 Qo‘shko‘pir tuman hokimligi

Qo‘shko‘pir tumanining 2023 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashining 2023 yil 5 yanvardagi “2023 yil uchun Xorazm viloyati mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-57-1-12-0-K/23–sonli qaroriga muvofiq hamda Xorazm viloyati hokimligining moliya bosh boshqarmasining 2022 yil 30 dekabrdagi 01-01-33-38//402-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Qo‘shko‘pir tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashining 2023 yil 5 yanvardagi “2023 yil uchun Xorazm viloyati mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashining 2023 yil 5 yanvardagi “2023 yil uchun Xorazm viloyati mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga (keyingi o‘rinlarda Qaror deb ataladi) muvofiq, Qo‘shko‘pir tumani mahalliy budjetining 2023 yil uchun daromadlari 100 600,6 mln.so‘m, xarajatlari 231 768,1 mln.so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 131 167,5 mln.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3**.** 2023 yil uchun Qo‘shko‘pir tumani mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2023 yil uchun Qo‘shko‘pir tumani mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2023 yil uchun Qo‘shko‘pir tumani mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2023 yil uchun Qo‘shko‘pir tumani mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 4-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2023 yil uchun viloyat budjetidan Qo‘shko‘pir tumani mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman va shahar mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2023 yil uchun Qo‘shko‘pir tumani mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 2183,3 mln. so‘m miqdorida belgilansin.

Tuman budjetining 2023 yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida (jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan mablag‘dan tashqari) 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

9. 2023 yil uchun tumanning tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 832,0 mln.so‘mni hamda tumanlar va shaharlar budjetlari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2023 yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

SHuningdek, xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashining 2023 yil 5 yanvardagi “2023 yil uchun Xorazm viloyati mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-57-1-12-0-K/23–sonli qaroriga muvofiq 2023 yilda quyidagi soliq turlari:

a) Qo‘shko‘pir tuman budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan er solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan er solig‘i;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

davlat aktivlarini foydalanishga (ijaraga) berishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar.

Mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar tegishincha 2022 yil 1 iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq.

b) 3-ilovaga muvofiq quyidagi soliq turlari viloyat va tuman budjeti o‘rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022 yil 25 oktyabrdagi PQ-409-son qaroriga asosan 2023 moliya yilidan boshlab:

a) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida “Ochiq budjet” axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanadi.

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yilishi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetida shakllangan qo‘shimcha

mablag‘larning 30 foizi tuman (shahar)larda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman (shahar)lar Fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi;

v) tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari uchun tuman (shahar) budjetlarining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so‘m mablag‘ rejalashtirilishi belgilanganligi;

g) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

12. Qo‘shko‘pir tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (S.O‘razmetov), Moliya bo‘limi (F.Qurbonboev), Davlat soliq inspeksiyasi (S.Abdullaev) mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

13. Xalq deputatlari Qo‘shko‘pir tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

14. Tuman hokimligi:

Tuman budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, YOshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

15. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (S.O‘razmetov), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tuman hokimligi, tegishli tashkilotlar:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

16. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

17. Mazkur qaror “Hayot ko‘zgusi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

18. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

19. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Qo‘shko‘pir tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish,

investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (N.Boymuratova) va tuman hokimligi (S.O‘razmetov) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **Ollaquliyevich T. M.**

Xalq deputatlari Qo‘shko‘pir
tuman Kengashining
2023 yil 6 yanvardagi
VI-72-1-12-172-K/23-son
qaroriga
1-ilova

Qo‘shko‘pir tumani mahalliy budjeti daromadlarining

2023 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘m

T/r	Daromad turlari	Jami
1	Aylanmadan olinadigan soliq	6 239 000,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i *(jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari)*	24 341 000,0
3	YAkka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	958 000,0
4	Aksiz solig‘i, jami	13 801 000,0
	shu jumladan:	
	- benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	*13 801 000,0*
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 130 000,0
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	4 374 000,0
7	Yuridik shaxslardan olinadigan er solig‘i	9 119 000,0
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig‘i	7 141 000,0
9	Qurilish materiallari bo‘yicha er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	201 000,0
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 290 000,0
11	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	292 000,0
	Jami	71 886 000,0
	Mobil aloqa xizmati, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i tushumlaridan tegishli ravishda o‘tkazib beriladigan daromadlar	**28 714 625,0**
1	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo	11 616 537,0
2	Mobil aloqa xizmati	4 982 819,0
3	Tamaki mahsulotlari	12 115 269,0
JAMI DAROMAD		**100 600 625**

Xalq deputatlari Qo‘shko‘pir tuman
Kengashining
2023 yil 6 yanvardagi
VI-72-1-12-172-K/23-son qaroriga
2-ilova

2023 yil uchun viloyatning viloyat budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdori

ming so‘m

T/r	Ko‘rsatkichlar	Summa
Tuman budjetidan ajratiladigan mablag‘lar jami		**231 768 147,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	231 768 147,0
1	**Qo‘shko‘pir tuman Xalq ta’limi bo‘limi**	**8 111 061,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	8 111 061,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
2	**Qo‘shko‘pir tuman Maktabgacha ta’lim bo‘limi**	**17 675 297,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	17 675 297,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

3	**Qo‘shko‘pir tuman Sog‘liqni saqlash birlashmasi**	**74 613 395,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	74 613 395,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
4	**Qo‘shko‘pir tuman Madaniyat bo‘limi**	**3 322 059,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 322 059,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
5	**Qo‘shko‘pir tuman sport bo‘limi**	**4 172 233,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 172 233,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
6	**Qo‘shko‘pir tuman Obodonlashtirish boshqarmasi**	**12 671 555,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	12 671 555,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

7	**Qo‘shko‘pir tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi**	**983 697,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	983 697,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
8	**Qo‘shko‘pir tuman Irrigatsiya bo‘limi**	**1 097 891,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 097 891,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9	**Qo‘shko‘pir tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi**	**1 959 879,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 959 879,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
10	**Qo‘shko‘pir tuman Axoli bandligiga ko‘maklashish markazi**	**865 464,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	865 464,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
11	**Qo‘shko‘pir tuman hokimligi**	**91 640 375,0**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	91 640 375,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
12	**Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»**	**18 400,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	18 400,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
13	**Qo‘shko‘pir tuman moliya bo‘limi**	**1 295 856,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 295 856,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
14	**Qo‘shko‘pir tuman Oila va xotin-qizlar bo‘limi**	**3 255 373,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 255 373,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
15	**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Xorazm viloyatidagi muassasalar**	**641 489,0**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	641 489,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
16	**Xalq deputatlari viloyat Kengashi**	**210 052,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	210 052,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
17	**Ijtimoiy ko‘nikma markazlari**	**94 472,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	94 472,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
18	**O‘zbekiston Respublikasi YOshlar ishlari agentligi Xorazm viloyati boshkarmasi**	**4 243 408,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 243 408,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
19	**Qo‘shko‘pir tuman Mahalla va oilani qullab-quvvatlash boshqarmasi**	**4 896 191,0**
	shu jumladan:	

	joriy xarajatlar	4 896 191,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0

Xalq deputatlari Qo‘shko‘pir tuman
Kengashining
2023 yil 6 yanvardagi
VI-72-1-12-172-K/23-son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy budjetlariga ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

T/R	SHaxar va tumanlar nomi	Aylanmadan olinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	YUridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	YUridik shaxslardan olinadigan er solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig‘i	Qurilish materiallari bo‘yicha er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, *bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno*	Davlat aktivlarini foydalanishga (ijaraga) berishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar
1	Qo‘shko‘pir tumani	100	50	100	100	100	100	100	100	100	100	100

Xalq deputatlari Qo‘shko‘pir
tuman Kengashining
2023 yil 6 yanvardagi
VI-72-1-12-172-K/23-son
qaroriga
4-ilova

Mahalliy budjetning 2023 yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	Daromad	Xarajat
Qo‘shko‘pir tumani	100 600 625,00	231 768 147,00

Xalq deputatlari Qo‘shko‘pir
tuman Kengashining
2023 yil 6 yanvardagi
VI-72-1-12-172-K/23-son
qaroriga
5-ilova

Tuman mahalliy budjetining 2023 yilgi yuqori budjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

T/r	Shahar va tumanlar	Tartibga soluvchi transfert miqdori
1	Qo‘shko‘pir tumani	131 167 522,0

Xalq deputatlari Qo‘shko‘pir
tuman Kengashining
2023 yil 6 yanvardagi
VI-72-1-12-172-K/23-son
qaroriga
6-ilova

Tumanlar mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Shahar va tumanlar	Miqdor
1	Qo‘shko‘pir tumani	832 000,0